

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI

"TEKNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB
CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH VA
BOSHQARISH"
kafedrasi



TIQXMMI
Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligi
Mexanizatsiyalash muhandislar Instituti

INJENERLIK ISHLARI VA ISHLAB CHIQRISHDA INSON FAKTORI

fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

USLUBIY QO'LLANMA

Ushbu uslubiy qo'llanma institut ilmiy-uslubiy Kengashining 16-yanvar 2019 yilda bo'lib o'tgan 1-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu uslubiy qo'llanma «Qishloq va suv xo'jaligini energiya ta'minoti» fakultetining 5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashirish va boshqarish” bakalavr yo'nalishi “Injenerlik ishlari va ishlab chiqarishda inson faktori” fani bo'yicha bajaradigan amaliy mashg'ulotlar mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy injeneriyada faoliyat ko'rsatuvchi injener texnik xodimlar uchun foydali bo'ladi.

Tuzuvchilar: E.Bozorov, t.f.n., v.v.b. dotsent.

N.Azizova, assistent.

N.Imomova, laboratoriya mudiri.

Taqrizchilar: G.K. Ishanxodjaev-“O'zbekenergo” AJ Ilmiy markazi

MCHJ laboratoriya mudiri, t.f.d. professor.

A.Raxmatov -t.f.n., dotsent.

Kirish

Inson faktori, injeneriyada va ishlab chiqarishda, mahsulotning samaradorligini oshirish va uning sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan mashina va texnikani yaratuvchilar, hamda jarayonlarni ishlab chiquvchilar loyihalashirish bosqichidayoq ergonomika psixologiyasining ilmiy asoslaridan kelib chiqib, inson faktori muammolarini samarali yyechishlari lozim.

Ikkinchidan, mashina va texnik vositalarni yaratuvchi va sinovchilar inson faktori bo'yicha loyiha yyechimlarini talab darajada bo'lishini ta'minlashlari lozim.

Uchinchidan, sistemani ekspluatatsiya qiluvchi inson-xodimlar (komponent) ergonomik yyechimlar va injener psixologik faktorlarni hisobga olib tayyorlangan bo'lishlari zarur. Yana boshqaruvchi mehnati xususiyatlarini (spesifikasini) va uning mazmunini aniq belgilab olish zarur. Fanni o'rganishda insonni (odamlar guruhini) murakkab texnik sistemalarda faoliyati tahlil qilinadi. Chunki inson nima bilan Shug'ullansa, u bilan o'zaro ta'sirda bo'lsa, ularning samaradorligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun, texnik sistemalarda insonni informatsiya, qurilmalar, material massasi va energiya bilan integrallashuvi yaratuvchilikning barcha bosqichlarida loyiha, tayyorlash, ishlatish, ekspluatatsiya, ro'yxatdan chiqarishda ta'minlanishi zarur. Bu integrallashuvning sifati hayot sifati, mehnatdan qoniqish hosil qilish bilan bog'liq bo'lib, mehnatni tashkil qilish shakli va tarkibi bilan belgilanadi.